

**O'ZBEK IJTIMOIY PSIXOLOGIYASIDA YOSHLARNI NIKOH  
OLDI YETUKLIKKA TAYYORLASH MUAMMOSINING  
O'RGANILGANLIK DARAJASI**

***Sharapova Sabohat Djabborovna***

*Guliston davlat universiteti*

*psixologiya fanlari doktori, professor*

***Normamatova Nazira Alijon qizi***

*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** O'zbek ijtimoiy psixologiyasida yoshlarni nikoh oldi yetuklikka tayyorlash muammosi jamiyatning rivojlanish jarayonida, ayniqsa, oila institutining mustahkamligi va yoshlarning ijtimoiy-psixologik barqarorligi nuqtai nazaridan juda muhim ahamiyatga ega. Nikoh – bu nafaqat ikki kishining o'zaro sevgi va sadoqatini ifodalovchi institut, balki jamiyatning asosiy tashkil etuvchi qismlaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham yoshlarni nikohga tayyorlash masalasi, nafaqat individual darajada, balki butun jamiyatning kelajagi uchun ham muhim hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** ijtimoiy psixologiya, nikohga tayyorgarlik, psixologik yetuklik nikohdan oldingi tayyorgarlik, yoshlarning psixologik rivojlanishi, oilaviy munosabatlar, o'zaro munosabatlar, oila qurish psixologiyasi, ijtimoiy va madaniy omillar.

**Абстрактный:** В узбекской социальной психологии проблема подготовки молодежи к предбрачной зрелости имеет большое значение в развитии общества, особенно с точки зрения прочности института семьи и социально-психологической устойчивости молодежи. Брак — это не только институт, выраждающий взаимную любовь и преданность двух людей, но и один из основных элементов общества. Вот почему вопрос подготовки молодежи к браку важен не только на индивидуальном уровне, но и для будущего общества в целом.

**Ключевые слова:** социальная психология, подготовка психологическая зрелость, к браку, добрачная подготовка, психологическое развитие молодежи,

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

*взаимоотношения, психология формирования семьи, социальные и культурные факторы, семейные взаимоотношения.*

**Abstract:** In Uzbek social psychology, the problem of preparing young people for premarital maturity is of great importance in the development of society, especially from the point of view of the strength of the family institution and the socio-psychological stability of young people. Marriage is not only an institution that expresses the mutual love and loyalty of two people, but also one of the main constituent parts of society. Therefore, the issue of preparing young people for marriage is important not only at the individual level, but also for the future of society as a whole.

**Keywords:** social psychology, preparation for marriage, psychological maturity, premarital preparation, psychological development of young people, relationships, psychology of family formation, social and cultural factors, family relations

O'zbek ijtimoiy psixologiyasida yoshlarni nikohga tayyorlash, ayniqsa, nikoh oldi yetuklikka tayyorlash masalasi jamiyatning ijtimoiy va madaniy kontekstida muhim o'rinn tutadi. Bu masala yoshlarning ruhiy va jismoniy rivojlanishi, o'zaro munosabatlar va nikoh hayoti uchun tayyorgarlikni o'z ichiga oladi. O'zbek ijtimoiy psixologiyasida nikohga tayyorgarlik masalasi ko'pincha an'anaviy qarashlar va oilaviy qadriyatlar asosida ko'rildi. An'anaviy o'zbek jamiyatida nikoh yoshlar uchun katta bir mas'uliyat va muhim ijtimoiy voqealarning sifatida qaraladi. Buning uchun yoshlar o'zlarining nikoh hayotiga tayyor bo'lishi kerak. **Ota-onanining roli:** O'zbekistonda yoshlarni nikohga tayyorlashda ota-onalarning roli katta. Ota-onalar yoshlarni nikohga tayyorlashda, ular uchun muhim qadriyatlar, mas'uliyatlarni va rolni tushuntiradi. Nikohdan oldin o'zaro hurmat va muvozanatli munosabatlarni qurish muhim deb hisoblanadi. **Tarbiyaviy jihatlar:** ko'pincha oilalarda yoshlar tarbiyasi, ayniqsa, qizlarga nikohga tayyorlikning boshlanishi sifatida qaraladi. Aholi orasida qizlarning nikohga tayyor bo'lishi ko'pincha ularning oila qurishga oid an'anaviy roli va vazifalariga tayyorligi bilan bog'liq. O'zbek ijtimoiy psixologiyasida yoshlarni nikoh oldi yetuklikka tayyorlash muammosi bir qancha olimlar tomonidan o'rganilgan va

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

o‘rganilmoqda. Quyida yoshlarning nikoh oldi yetuklikka tayyorlashga oid ayrim ijtimoiy psixologiyada o‘rganilgan tadqiqotlar ko‘rib chiqiladi.

O.Bo‘riyevning “Oilaga xos bo‘lgan xarita xususida” asari, oilaning psixologik va ijtimoiy strukturasini tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishidir. Ushbu asar, oilaning o‘ziga xos xususiyatlarini va uning ichki munosabatlarini ko‘rib chiqadi. Bo‘riyev, oilaning psixologik aspektlarini, undagi o‘zaro ta’sir va ro‘lni, oilaning turli bosqichlarida yuzaga keladigan muammolarni va psixologik xususiyatlarni o‘rganadi. Asarda oilaning strukturasi, uning o‘zaro munosabatlari, har bir a’zo o‘rtasidagi ro‘l va his-tuyg‘ular ko‘rib chiqilgan. Bundan tashqari, oilaning ijtimoiy rolini va jamiyat bilan aloqasini tahlil qilishda psixologik xususiyatlar, stress va konfliktlarga qarshi kurashish kabi masalalar muhokama qilinadi. Bu asar, oilaga xos bo‘lgan xarita yoki psixologik modellarni o‘rganish orqali, oila a’zolarining o‘zaro munosabatlarini yaxshilashga va oilaviy hayotda yuzaga keladigan psixologik masalalarni hal qilishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib boradi[1].

M.Inoyatovning "**Gender psixologiyasi**" nomli asarida yozishicha, bugungi kunda gender psixologiyasi sohasida asosan androtsentrik qarashlar ustuvorligi kuzatilmoqda. Ya’ni, ikkala jins vakilida ham bir-biridan tomoman farq qilmaydigan, ikkalasida ham kuzatish mumkin bo‘lgan psixologik xususiyatlar kuzatilmoqdaki, bu ularning eng avvalo oila va nikoh masalalaridagi qarashlar uyg’unligidan kelib chiqadi. Lekin metodologik jihatdan olimning ta’kidlashicha, baribir, aynan ayolga xos sifatlar normasi haqida gap ketganda, baribir ular erkak sifatlarining standarti asosida tahlil etiladi[2].

Sh.S.Abduqodirov o‘zining "Ijtimoiy psixologiya" asarida yoshlarning nikohga tayyorligini o‘rganishga katta e’tibor qaratgan. U yoshlarni nikohga tayyorlashda, ijtimoiy va psixologik omillarning ahamiyatini ta’kidlagan. Asarda yoshlarning nikohga tayyorligi faqatgina ularning psixologik holati bilan chambarchas bog‘liq emas, balki jamiyatdagi o‘zgartirilgan qadriyatlar, oila tuzilishi va ijtimoiy rollarni anglash bilan ham bog‘liq ekanligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, Abduqodirov yoshlarning nikohga nisbatan ijtimoiy qarashlarini, ularning shaxsiy tajribalarini o‘rgangan[3].

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

M.M.To‘raqulovning “Yoshlar va psixologik tayyorlik” asarida, yoshlarning oila qurishdan oldingi psixologik tayyorlik darajasi o‘rganiladi. To‘raqulov o‘zi olib borgan eksperimentlar va tahlillar yordamida, yoshlarning oila qurishga nisbatan his-tuyg‘ulari va psixologik holatlarini aniqlashga harakat qilgan. U yoshlarning nikohga tayyorlik darajasini belgilashda, shaxsiy ruhiy holatni va oila a’zolariga nisbatan munosabatlarni tahlil qilishni muhim deb bilgan. U o‘zi olib borgan tadqiqotlar asosida, yoshlarning nikohga tayyorligi, nafaqat psixologik holatga, balki shaxsiy va ijtimoiy mas’uliyatni qabul qilishga ham bog‘liqligini ta’kidladi[4].

R.R.Mirmuxammedov o‘zining “Oila qurishga tayyorlik: psixologik va ijtimoiy omillar” nomli asarida oila qurishga tayyorlikning psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qiladi. Ushbu asarda, oila qurish jarayonidagi psixologik omillar, shaxsiy va ijtimoiy tayyorgarlik, shuningdek, yoshlar va oila qurish bilan bog‘liq turli ijtimoiy muammolar va ularning psixologik ta’siri ko‘rib chiqiladi. Mirmuxammedovning bu asari oila va nikoh psixologiyasiga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, oila qurishga tayyorlikning ijtimoiy va psixologik jihatlarini tahlil etishga yordam beradi[5].

R.R.Mirmuxammedov bundan tashqari o‘zining tadqiqotlarida oila qurishga tayyorlikning psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qiladi. Uning fikriga ko‘ra, nikohga tayyorlik yoshning o‘z-o‘zini anglashiga, oila tuzish bo‘yicha psixologik tushunchalariga va oilaviy mas’uliyatni his qilishiga bog‘liq. R.Mirmuxammedov yoshlarning o‘zgargan ijtimoiy va madaniy sharoitda, oilaviy hayotga tayyorligini oshirish uchun jamoatchilik tomonidan olib borilishi kerak bo‘lgan ishlarni tavsiya qiladi. Mirmuxammedov yoshlar o‘rtasida oilaviy mas’uliyat va oila tuzish bo‘yicha psixologik tayyorgarlikni shakllantirishda ijtimoiy muhitning ta’siri haqida fikr yuritadi. Yoshlarning o‘zaro munosabatlari va oilaviy vazifalariga nisbatan tasavvurlarini o‘rgangan va nikohga tayyorlikni ijtimoiy madaniyat bilan bog‘lagan.

### **Xulosa**

O‘zbekiston ijtimoiy psixologiyasida yoshlarga nikoh oldi yetuklikka tayyorlash masalasi hali to‘liq o‘rganilmagan. Ba’zi ilmiy tadqiqotlar bu mavzuni alohida tadqiq qilgan bo‘lsa-da,bu sohadagi ilmiy ishlarning yetarlicha

## ***Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi***

---

rivojlanmaganligini ko'rsatadi. Asosan, yoshlarga nikoh oldi tayyorgarlikni taqdim etishda, oilaviy qadriyatlar, o'zaro munosabatlar va ijtimoiy o'zgarishlarga oid muammolar tahlil qilinmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.O.Bo'riyev "**Oilaga xos bo'lgan xarita xususida**" asari "**O'zb.:**"-2005y.-115b.
2. M.Inoyatov "**Gender psixologiyasi**" asari "**O'zbekiston.:**"-2010 y.-**250** b.
3. Sh.S. Abduqodirov "Ijtimoiy psixologiya" asari O'zFA "FAN"-2008 y.- 320 b.
- 4.M.M.To'raqulov "Yoshlar va psixologik tayyorlik" asari "**O'zb.:**"-1999y.- 110 b.
5. R.R. Mirmuxammedov "**Oila qurishga tayyorlik: psixologik va ijtimoiy omillar**" asari "**O'zbekiston**" 2011-y.-160 b.